

Texnologiya darslari orqali o‘quvchi qizlarni hayotga tayyorlash

Ollaberganova Marhabo Azodovna

Urganch Davlat Pedagogika Instituti.

Annotatsiya. Ushbu mqoloada Texnologiya darslari orqali o‘quvchi qizlarni hayotga tayyorlash hamda, o‘quvchi qizlar bilan Texnologiya darslarida tikuvchilikga o‘rgatishning o‘ziga xosligi va interfaol metodlardan foydalanish haqida fikrlar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, texnologiya, dars, inklyuzivlik, An’ana, to’qimachilik.

Аннотация. В этом разделе были выдвинуты идеи о подготовке школьниц к жизни посредством уроков технологии, а также об уникальности обучения шитью на занятиях по технологии со школьницами и использовании интерактивных методов.

Ключевые слова: Студент, технология, урок, инклюзивность, Традиция, текстиль.

Abstract. In this section, ideas were put forward about preparing schoolgirls for life through technology lessons, and the uniqueness of teaching sewing in technology classes with schoolgirls and the use of interactive methods.

Key words: Student, technology, lesson, inclusiveness, Tradition, textile.

KIRISH

O‘quvchi qizlarga texnologiya darslarida tikishni o‘rgatish ta’limga turli foya keltiradigan o‘ziga xos yondashuvdir. Interaktiv usullarning integratsiyasi tikuv darslarini ko‘pchilik o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va zavqli qilib qo‘ydi. O‘quvchi qizlar bilan texnologiya darslarida tikishni o‘rgatishda interaktiv usullardan foydalanish ko‘plab foya keltiradi. Ijodkorlikni targ‘ib qilish, amaliy mahoratni ta’minlash, inklyuzivlikni shakllantirish. O‘quvchi qizlarga texnologiya darslarida tikishni o‘rgatishda interaktiv usullardan

foydalanimishning sezilarli foydalaridan biri ijodkorlikni targ‘ib qilishdir. Interaktiv o‘qitish usullari o‘quvchilarga turli matolar, namunalar va dizaynlarni sinab ko‘rishga platforma beradi, ularning ijodkorligini qo‘zg‘atadi. Talabalar noyob moda buyumlarini yaratish uchun CAD dasturiy ta’minoti va aqlli to‘qimachilik kabi turli raqamli vositalar va dasturlarni sinab ko‘rishlari mumkin. Ijodkor bo‘lish erkinligi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘rganishga bo‘lgan munosabati va umumiylar farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.¹

Interaktiv usullar orqali tikishni o‘rgatish ham o‘quvchilar darsdan tashqarida qo‘llay oladigan amaliy ko‘nikmalarni beradi. O‘quvchilar tugmalarni tikish, etaklash va kiyimlarni tuzatishni o‘rganadilar, liboslarini boshqarishda ularni mustaqilroq qiladilar va kiyimlari bilan kichik masalalarni hal qilish uchun tashqi partiyalarga bog‘liq bo‘lish xavfini kamaytiradilar. Ushbu amaliy ko‘nikmalar qizlarga kundalik hayoti va kelajakdagi karyerasida foyda keltirishi mumkin. Interaktiv tikuv darslari ham qo‘sniqchilikni shakllantiradi, bu esa o‘quvchilarga o‘z shaxsiy manfaatlarini tadqiq qilish va qo‘llab-quvvatlash uchun xavfsiz joy beradi. An’anaga ko‘ra, tikish ayollar bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo texnologiya darslarida tikishni o‘rgatishda interaktiv usullardan foydalanimish gender tengligini ta’minlaydi. Bunday usullar o‘quvchilar o‘rtasida inklyuzivlikni rag‘batlantiradi, xilma-xillikni taranura qiladi, totuvlikni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Texnologiya darslari mazmuni 5-7 sinflarda ikki qismdan qiz bolalar va o‘g‘il bolalar mehnatidan tashkil topgan. Bunda qiz bolalar oddiy chok turlaridan boshlab tayyor keyim tikishgacha, yoki oddiy salat tayyorlashdan tortib milliy taomlarni tayyorlash jarayonlarini o‘rgansalar, o‘g‘il bolalar esa yog‘och va metal turlaridan tortib eng oddiy ta’mirlash ishlari, yog‘och, metall va polimerlardan tayyor buyumlar tayyorlash kabi texnologik jarayonlarni o‘rganadilar. Texnologiya darslarida o‘quvchilar deyarli barcha turdagini tabbiy va

¹ Tilanova M.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko‘nikmalarini shakllantirish yo’llari. T., 2007.

sun’iy materiallar bilan ishlaydilar. Texnologiya darslari jarayonida o‘quvchilar haomashyolardan tayyor buyumlar va istemol mollari (salatlar, taomlar) tayyorlash jarayonini o‘rganganliklari, materiallar bilan ishlaganliklari uchun darslarda quyidagi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish yuqori samara beradi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilar tomonidan tayyorlanayotgan buyum turmushda kerakli bo‘lsin va aniq bir vazifani bajarsin.

Ko‘zlanayotgan natija. O‘quvchilarda vaqt ni rejalashtirish o‘zi amalga oshirmoqchi bo‘lgan vazifaning ahamiyatini anglab yetishi biror bir hayotiy zarur buyumni yasash jarayonida unumli mehnat faoliyati bilan band bo‘lish imkonini beradi (erishilgan natija qo‘yilgan maqsadga qanchalik ko‘p darajada mos bo‘lsa, samaradorlik shuncha yuqori hisoblanadi).²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani ta’lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg‘or pedagogik tajribalar bilan boyitilgan va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan materiallar asosida yoritib boriladi. O‘quvchilarni amaliy texnologik jarayonlarga tayyorlash va ularni boshlang‘ich texnologik operatsiyalari malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini ta’minlaydi. Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati ham muhim hisoblanadi. U o‘quvchilarda mehnat turlari haqidagi tushunchalarni shakllantiradi, mehnatga bo‘lgan qiziqishni hosil qilib, mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi hamdajamoatchilik hissini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning aqliy jihatdan kamol topib borishlarida zamin yaratadi. Iroda va axloqiy sifatlarni rivojlantirishda ko‘maklashadi. O‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan his-tuyg‘uning hosil bo‘lishi ularda do‘slik, birodarlik, bir-biriga ko‘maklashish, jamoatchilik, hurmat- izzatda bo‘lish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O‘quvchilarni texnologiya fanini o‘zlashtirishga psixologik tayyorlash. Ushbu jarayon murakkab, uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u

² S.Musayeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tejamkorlikka o’rgatish Toshkent “O‘qituvchi” 1992-yil.

butun texnologiya fani va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga psixologik tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Amaliy tayyorlash texnologiya fanining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. U o‘zaro boglangan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli operatsiyalarni to‘g‘ri va ratsional amalga oshira bilish, ya’ni u yoki bu materialga ma’lum izchillikda ishlov bera borish, yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga munosabatni shakllantirish. Bu jarayon texnologiya fanining muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Mehnatga munosabatni shakllantirish va tayyorlashning muvaffaqiyatliroq bo‘lishi uchun bolalarning xotiralarini o‘stirish vazifasi muhim rol o‘ynaydi. Chunki texnologiya darslarida o‘quv materiallarini eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘quvchilari barcha yangi asboblar, materiallar, operatsiyalarning nomini, predmetni ko‘rib idrok etish bilan birga ularni fikran biriktirib, tinglab fahmlashlari kerak. Buning uchun o‘qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki, asosan, material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, operastiyalarning izchilligini ko‘rsatishi lozim. O‘quvchida mehnatga munosabatni turg‘un shakkalanishi uchun berilayotgan ta’lim mazmunini bilishi, ma’lumotlarni qunt bilan eshitishi, ko‘rishi kerak. Mehnat darsidan keyingi mehnat darsigacha yangidan yangi bilim va ko‘nikmalarning o‘quvchilar ongida mujassamlashib borishi, ularning xotirlash doirasini kengayib borishiga da’vat etadi va mehnat turlariga bo‘lgan munosabatlarni yanada oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib

kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o‘rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari haqida qisqacha fikr yuritilgan. Yaqindagina O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Oliy talim vazirligi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan hamkorlikda Uzluksiz ta’limda texnologiya fanini takomillashtirish va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali hayotga tayyorlash” mavzusida Respublika online ilmiy amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri “O‘quvchilarni kasb hunarga yo‘naltirishda texnoogiyalarning ahamiyati va o‘rni” mavzusidir. Darhaqiqat, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda texnologiya fanining o‘rni juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.R.Mavlonova G.Maxmudova “Mehnat” 3-sinf o‘qituvchi Toshkent 1995-yil.
- 2.R.Mavlonova “Mehnat” 4-sinf Toshkent “O‘qituvchi” 1993- yil.
- 3.S.Musayeva boshlang’ich sinf o‘quvchilarni tejamkorlikka o’rgatish Toshkent “O‘qituvchi” 1992-yil.
- 4.Tolipov O’.K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006
- 5.Tilavova M.M. Boshlang’ich sinf mehnat darslarini tashkil etish texnologiyasi. T., 2008.
- 6.Tilavova M,M. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko’nikmalarini shakllantirish yo‘llari. T., 2007
- 7.Pedagogika. Minsk 2005.
- 7.H.Egamov “O’zingiz ko’ring va yasang” Toshkent o‘qituvchi 1998-yil.